

“Amir Temur – dunyo olimlari va adiblari nigohida” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

“Amir Temur – dunyo olimlari va adiblari nigohida” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchilari va xorijiy temurshunos olimlar tantanali ravishda O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyida kutib olindi. Tadbirda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari M.M. Xojimatov va Xalqaro Amir Temur hayriya jamoat fondi raisi Muhammad Ali so‘zga chiqdilar. Amir Temur va Temuriylar davri zaminimizdagi Ikkinchi Renessans davri sifatida e’tirof etilib, bugungi kunda bu davr butun dunyo olimlari nigohida ekanligi xususida to‘xtalib o‘tdilar.





Mehmonlar Amir Temur va Temuriylar davri tarixi, madaniyati va san'atini o'zida aks ettirgan ekspozitsiya va noyob eksponatlar bilan tanishdilar. Ayniqsa, Amir Temur tavalludining 685 yilligi va mustaqilligimizning 30 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan "Mustaqillik yillarida Amir Temur va Temuriylar davri tarixiga oid nashr etilgan kitoblar" va "Temuriylar tarixi davlat muzeyi numizmatika kolleksiyasi" nomli ko'rgazmalar tadbir ishtirokchilarida katta qiziqish uyg'otdi.